



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoira Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоира Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоира Джалоловна	



SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI.....	197
Tursunboyev Umarbek	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна	
Мансурова Сайёра Бахтиёровна	
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
О'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	237
Shohruzbek Ruziyev	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING	244
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	256
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Mamanov Isroil Islom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI.....	260
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li	
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN	264
Dr Muhammad Bilal	
Gulyorabonu Usmonova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI.....	275
Xasanova Xamida Xaydaraliyevna	
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	281
Nazarova Shahodat Ravshan qizi	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN INDUSTRIAL COMPANIES	286
Musoyeva Rukhshona Javlon qizi	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE.....	291
Musayeva Shoira Azimovna	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ VA BUXGALTERIYA ISLOHOTLARINING KORXONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI	298
Isayev Jahongir Muzaffarovich Jumaboyeva Zuhra Umidbek qizi	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR TOMONIDAN XODIMLAR DAROMADIDAN SOLIQNI TO'LOV MANBAIDA USHLAB QOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	302
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLUKATLAR TAJRIBASI	309
Sheraliyev Axror Sodiqovich Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li	
BIZNES INKUBATORLARNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	314
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich	
GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI	323
R.O. Obloberdiyeva	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	329
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI	335
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
MUSOBAQA DAVRIDA MALAKALI MARKAZ O'YINCHILARINING HUJUM TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	340
R.O. Obloberdiyeva	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ NIZOLARINI SUDGACHA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	348
Solihova Xumora Xasan qizi	
IQTISODIYOTDA "DATA SCIENCE"NING O'RNI VA AHAMIYATI	354
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi	
ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ И ФИНТЕХ-РЕШЕНИЙ	357
Abdulloeva Shahlo Rustomovna	
MAXSUS IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY KATEGORIYALAR	365
Arslanov U.U.	
KORXONA BOSHQARUV TIZIMINI KOMPLEKS TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARI	372
Yusupov Nurillo Ikromjon o'g'li	
SANOAT SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH	378
Alijonov J.A. Abdusattorova Dilobar Abdujabborovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOY HIMOYA VA BANDLIK SIYOSATINING ROLI	384
Murodullayev Saydali Fayzulla o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA "POTENSIAL – SAMARADORLIK–BARQARORLIK" (PSB) STRATEGIYA MODELINI TATBIQ ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT	391
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li	
KORPARATSIYALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR	395
Alijonov J.A. Egamberdiyeva Oydinoy Muhammadjon qizi	



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MALAKALI KADRLARNING AHAMIYATI	402
Alijonov J.A.	
Bozorboyeva Maftuna Turob qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	407
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEMS IN MODERN ENTERPRISES	411
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ogli	
Ashurova Jasmina Jora Kizi	
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	420
Dilsora Shodmonova	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA "TARBIYA" FANINI TABIIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASH ASOSIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH	427
Norbo'tayeva Iroda Yunusovna	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ РАЗВИТИЯ БИЛИНГВИЗМА У ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯ	431
Istamova Nigora Azimjanovna	
RESURSLAR AYLANMASINI BOSHQARISH VA SIRKULAR IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL-IQTISODIY SHARTLARI	437
Kuzieva Nargiza Ramazanovna	
Xalikulova Gulzada Tojmuratovna	
TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	445
Almuradov Ne'mat Abdullayevich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH	453
Sharifjonova Gulchehra	
MARKAZIY OSIYODA OZIQ-OVQAT NARXLARI INFLATSIYASINING UZOQ MUDDATLI DINAMIKASI (2005–2025): O'ZBEKISTONGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILGAN QIYOSIY TAHLIL	457
Davirova Shahlo Shukrullayevna	
Nasirullayeva Sevinch G'ayrat qizi	
INVESTITSIYALAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	465
I.Boymurodov	
BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	471
R.I. Isroilov	
AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA QISHLOQ HUDUDLARINING BARQAROR IQTISODIY VA IJTIMOY TARAQQIYOTINI TA'MINLASH ASOSLARI.....	477
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	



УДК 338.48:338.43(575.1) AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA QISHLOQ HUDUDLARINING BARQAROR IQTISODIY VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTINI TA'MINLASH ASOSLARI

Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti
aliqulovhumoyunforever@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada agroturizmning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ahamiyati kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqotda agroturizmning qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash, mahalliy aholi daromadlarini oshirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan baholangan. Shuningdek, agroturizmning "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, milliy madaniy meros va an'analarni saqlashdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari, institutsional asoslari va sohadagi muammolar tahlil qilingan. Xususan, qishloq infratuzilmasini yanada rivojlantirish, marketing tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda investitsiya faolligini oshirish agroturizm taraqqiyoti uchun muhim yo'nalishlar sifatida baholangan. Tadqiqot davomida SWOT-tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari agroturizmni rivojlantirish qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish, turizm xizmatlari hajmini kengaytirish, fermer xo'jaliklari daromadlarini ko'paytirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu asosda agroturizm klasterlarini tashkil etish, raqamli marketing platformalarini rivojlantirish, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va "Fermer–Turist–Hudud" integratsion modelini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agroturizm, barqaror rivojlanish, qishloq iqtisodiyoti, hududiy rivojlanish, yashil iqtisodiyot, qishloq turizmi, investitsion jozibadorlik, ekologik barqarorlik, turistik infratuzilma, qishloq bandligi.

Abstract. This article comprehensively examines the economic, social, and environmental significance of agritourism in ensuring the sustainable development of rural areas. The study analyzes the role of agritourism in diversifying the rural economy, increasing employment, improving rural household incomes, developing the service sector, and enhancing regional investment attractiveness. Particular attention is given to the importance of agritourism in implementing the principles of the green economy, ensuring environmental sustainability, and preserving national cultural heritage and traditions.

The article also explores the existing opportunities and institutional foundations for agritourism development in Uzbekistan, while highlighting the need to further improve infrastructure, marketing systems, personnel training, and investment activity.

The research employs SWOT analysis, comparative analysis, systemic analysis, and economic-statistical research methods.

The findings indicate that agritourism development contributes to the creation of new jobs, expansion of tourism services, increase in farmers' incomes, and enhancement of the competitiveness of rural territories. Based on the research results, scientific and practical recommendations were developed regarding the establishment of agritourism clusters, development of digital marketing systems, improvement of state support mechanisms, and implementation of the "Farmer–Tourist–Region" integration model.

Keywords: agritourism, sustainable development, rural economy, regional development, green economy, rural tourism, investment attractiveness, environmental sustainability, tourism infrastructure, rural employment.



Аннотация. В данной статье комплексно исследованы экономические, социальные и экологические аспекты развития агротуризма как важного фактора устойчивого развития сельских территорий. Проанализирована роль агротуризма в диверсификации сельской экономики, повышении занятости населения, росте доходов сельских домохозяйств, развитии сферы услуг и повышении инвестиционной привлекательности регионов. Особое внимание уделено значению агротуризма в реализации принципов «зелёной экономики», обеспечении экологической устойчивости, сохранении национального культурного наследия и традиций. В статье рассмотрены современные возможности и институциональные основы развития агротуризма в Узбекистане, а также обозначены направления дальнейшего совершенствования инфраструктуры, маркетинговой системы, подготовки квалифицированных кадров и повышения инвестиционной активности. В процессе исследования использованы методы SWOT-анализа, системного и сравнительного анализа, а также экономико-статистические методы исследования.

Результаты исследования показывают, что развитие агротуризма способствует созданию новых рабочих мест, расширению объёмов туристических услуг, увеличению доходов фермерских хозяйств и повышению конкурентоспособности сельских территорий. На этой основе разработаны научно-практические рекомендации по формированию агротуристических кластеров, развитию цифрового маркетинга, совершенствованию механизмов государственной поддержки и внедрению интеграционной модели «Фермер–Турист–Территория».

Ключевые слова: агротуризм, устойчивое развитие, сельская экономика, региональное развитие, зелёная экономика, сельский туризм, инвестиционная привлекательность, экологическая устойчивость, туристическая инфраструктура, занятость сельского населения.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida qishloq hududlarini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining o'sishi va ekologik muammolarning kuchayishi qishloq hududlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan agroturizm qishloq xo'jaligi va turizm sohalarining integratsiyasi asosida shakllanayotgan istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida qashshoqlikni qisqartirish, munosib bandlikni ta'minlash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va hududlararo tengsizlikni kamaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda agroturizm muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq turistik xizmatlar majmuasi bo'lib, sayyohlarga qishloq hayoti bilan tanishish, fermer xo'jaliklari faoliyatida ishtirok etish, milliy an'analar va madaniyatni o'rganish imkoniyatini yaratadi. Natijada qishloq hududlarida xizmatlar sektori rivojlanadi, aholi daromadlari ortadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

O'zbekistonda turizm va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar agroturizmni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatning boy tabiiy resurslari, xilma-xil agroiklim zonalari, milliy urf-odatlar va qishloq xo'jaligi salohiyati agroturizmni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga, qishloq hududlarida infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi, marketing tizimining sustligi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu holatlar agroturizmning iqtisodiy imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda agroturizmning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan baholash hamda uni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, qishloq aholisining bandligi va daromadlarini oshirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agroturizm tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Phillip, Hunter va Blackstock agroturizmni qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan turizm shakli sifatida tavsiflaydi¹. Mualliflar agroturizmning asosiy xususiyati turistlarning fermer xo'jaliklari faoliyatida bevosita ishtirok etishida ekanligini ta'kidlaydi. Sharpley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qishloq turizmi va agroturizm hududiy rivojlanishning

1 Phillip S., Hunter C., Blackstock K. A Typology for Defining Agritourism // Tourism Management. – 2010. – Vol. 31. – No. 6.



muhim omili sifatida baholanadi². Uning fikricha, agroturizm qishloq aholisi daromadlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Lane qishloq turizmining hududiy iqtisodiyotga multiplikativ ta'sirini o'rganib, turizmning transport, savdo, ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan³.

UNWTO ekspertlarining tadqiqotlariga ko'ra, qishloq turizmi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.⁴ Ayniqsa, qishloq hududlarida bandlikni ta'minlash va madaniy merosni saqlashda uning ahamiyati yuqori baholanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, agroturizm qishloq hududlari iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Italiya, Fransiya va Avstriyada fermer xo'jaliklarining katta qismi turizm xizmatlari ko'rsatish orqali qo'shimcha daromad olmoqda.

Mahalliy olimlar tomonidan ham agroturizmning iqtisodiy samaradorligi va qishloq hududlarini rivojlantirishdagi roli tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va marketing strategiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agroturizm bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida uning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishga ta'sirini kompleks baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar nisbatan kam uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy va zamonaviy manbalarni tahlil qilish asosida tizimli tahlil usuli, qiyosiy tahlil usuli, statistik guruhlash usuli, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik yondashuv va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Jahon banki, BMTning Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), FAO hamda xorijiy ilmiy nashrlar ma'lumotlari tashkil etdi. Tadqiqotda agroturizmning iqtisodiy samaradorligi qishloq aholisi daromadlarining o'sishi, yangi ish o'rinlari soni, turizm xizmatlari hajmining o'sishi, investitsiyalar hajmi va ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari asosida baholandi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish istiqbollari SWOT-tahlil asosida baholandi hamda "Fermer-Turist-Hudud" integratsion modeli ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv agroturizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaralarini kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm tarmog'ini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turizm xizmatlari tarkibida ekologik, gastronomik va qishloq turizmi yo'nalishlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Mazkur jarayon qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Agroturizmning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi. An'anaviy fermer xo'jaliklari asosan mahsulot sotishdan daromad olsa, agroturizmni yo'lga qo'ygan xo'jaliklar turar joy, ekskursiya, milliy taomlar tayyorlash, hunarmandchilik mahsulotlari savdosi va madaniy dasturlar orqali qo'shimcha daromad olishi mumkin.

1-jadval.
Agroturizmning qishloq xo'jaligi subyektlari daromadlariga ta'siri⁵

Daromad manbasi	An'anaviy xo'jalik (%)	Agroturizm xo'jaligi (%)
Mahsulot sotish	95	55
Turistik xizmatlar	-	20
Mehmon uylari	-	10
Hunarmandchilik mahsulotlari	3	8
Qo'shimcha xizmatlar	2	7

2 Sharpley R. Rural Tourism and Sustainable Development. – London: Routledge, 2020.

3 Lane B. Rural Tourism: An Overview. – Oxford University Press, 2019.

4 World Tourism Organization (UNWTO). Rural Tourism and Sustainable Development Report. – Madrid, 2024.

5 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, agroturizm fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Qishloq hududlarida bandlikni oshirishdagi roli. Agroturizmning muhim afzalliklaridan biri yangi ish o'rinlarini yaratishidir. Ayniqsa, yoshlar va ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishda ushbu sohaning ahamiyati yuqori.

2-jadval.
Agroturizmning bandlikka ta'siri⁶

Ko'rsatkich	An'anaviy model	Agroturizm modeli
Doimiy ish o'rinlari	10	15
Mavsumiy ish o'rinlari	5	20
Ayollar bandligi (%)	25	45
Yoshlar bandligi (%)	20	40

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agroturizm xizmatlari rivojlangan hududlarda xizmat ko'rsatish sektori kengayib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi.

3. Hududiy infratuzilmaning rivojlanishiga ta'siri va agroturizmning ekologik samaradorligi. Agroturizm rivojlanishi bilan bir qatorda qishloq hududlarida transport infratuzilmasi, aloqa tizimlari, savdo xizmatlari, mehmonxona va mehmon uylari hamda umumiy ovqatlanish obyektlari rivojlanadi.

4. SWOT-tahlil. O'zbekistonda agroturizm SWOT-tahlili boy tabiiy resurslar va davlat qo'llab-quvvatlashi kabi kuchli tomonlarni ko'rsatadi. Shu bilan birga, infratuzilma va marketing tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, sohaga ta'sir etuvchi tashqi omillarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Agroturizmning infratuzilmaga ta'siri		Agroturizmning ekologik natijalari	
Yo'nalish	Ta'sir darajasi	Ko'rsatkich	Ta'sir darajasi
Yo'llarni yaxshilash	Yuqori	Organik mahsulotlar ulushi	Yuqori
Internet va aloqa	Yuqori	Chiqindilarni kamaytirish	O'rta
Mehmon uylari	Yuqori	Tabiiy landshaftlarni saqlash	Yuqori
Savdo xizmatlari	O'rta	Ekologik ongni oshirish	Yuqori
Transport xizmatlari	Yuqori		

1-rasm. Agroturizmning infratuzilmaga ta'siri va ekologik natijalari⁷

⁶ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm statistikasi to'plami. Toshkent, 2024.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



2-rasm. O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning SWOT-tahlili⁸

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroturizm qishloq hududlarini rivojlantirishning ko'p funktsiyali modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. Xorijiy tajribalar tahlili Italiya, Fransiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda agroturizm qishloq iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligini ko'rsatadi. Mazkur davlatlarda fermer xo'jaliklari turizm xizmatlari hisobiga qo'shimcha daromad olmoqda hamda qishloq hududlarining jozibadorligi ortmoqda.

O'zbekiston sharoitida Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi hududlarida agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

3-jadval. O'zbekistonda agroturizm rivojlanishi uchun istiqbolli hududlar

Hudud	Salohiyat darajasi
Samarqand viloyati	Juda yuqori
Qashqadaryo viloyati	Yuqori
Surxondaryo viloyati	Yuqori
Jizzax viloyati	O'rta-yuqori
Farg'ona vodiysi	Yuqori



3-rasm. Agroturizmning qishloq hududlari rivojlanishiga ta'siri⁹

8 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

9 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari agroturizmning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi. O'zbekistonning mavjud tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo'jaligi salohiyati, milliy an'analari va madaniy merosi agroturizmni rivojlantirish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, agroturizm qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Natijada fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligi ortadi va moliyaviy risklar kamayadi. Ikkinchidan, agroturizm qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar va ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Uchinchidan, agroturizmning rivojlanishi mahalliy infratuzilmaning takomillashishiga xizmat qiladi. Yo'llar, aloqa tarmoqlari, xizmat ko'rsatish obyektlari va mehmon uylarining rivojlanishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshiradi. To'rtinchidan, agroturizm yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, organik dehqonchilik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi. Beshinchidan, agroturizm qishloq hududlarining ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy madaniyat, urf-odatlar va xalq amaliy san'atining saqlanishi hamda targ'ib qilinishiga xizmat qiladi.



4-rasm. "Fermer–Turist–Hudud" integratsion modeli¹⁰

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Agroturizm klasterlarini tashkil etish. Har bir hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, agroturizm klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday klasterlar fermer xo'jaliklari, mehmon uylari, hunarmandlar va transport xizmatlarini yagona tizimga birlashtiradi.

2. Agroturizm obyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Agroturizm bilan shug'ullanuvchi subyektlarga imtiyozli kreditlar ajratish, soliq imtiyozlari berish, subsidiyalar taqdim etish, infratuzilma xarajatlarini qisman moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



3. Raqamli marketing tizimini rivojlantirish. Agroturizm xizmatlarini xalqaro va milliy onlayn platformalarda targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish mumkin.

4. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida agroturizm menejmenti, qishloq turizmi marketingi, ekoturizm va mehmondo'stlik xizmatlari yo'nalishlari bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish lozim.

5. Yashil sertifikatlash tizimini joriy etish. Ekologik standartlarga javob beradigan agroturizm obyektlarini sertifikatlash tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish qishloq hududlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli agroturizmni rivojlantirishga qaratilgan institutsional, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga oid statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.
2. Phillip S., Hunter C., Blackstock K. A Typology for Defining Agritourism // *Tourism Management*. – 2010. – Vol. 31. – No. 6. – P. 754–758. DOI: 10.1016/j.tourman.2009.08.001.
3. Sharpley R., Sharpley J. *Rural Tourism: An Introduction*. – London: International Thomson Business Press, 1997. – 165 p.
4. Lane B. What is Rural Tourism? // *Journal of Sustainable Tourism*. – 1994. – Vol. 2. – No. 1–2. – P. 7–21. DOI: 10.1080/09669589409510680.
5. World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism and Rural Development: A Policy Perspective*. – Madrid: UNWTO, 2023.
6. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). *Sustainable Agritourism: An Opportunity for Agrifood Systems Transformation in the Mediterranean*. – Rome: FAO, 2024.
7. Patterson I., Aslam M. U. Agritourism as an Emerging Sustainable Tourism Industry in Uzbekistan // *Sustainability*. – 2024. – Vol. 16. – No. 17. – Article 7519. DOI: 10.3390/su16177519.
8. Yoriyeva F. M. The Role of Agritourism in the Sustainable Development of Rural Areas in Uzbekistan // *Scientific and methodological journal*. – 2022.
9. Yoriyeva F. O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024. – № 2.
10. Самиева Г. Т. Развитие социальной инфраструктуры служит повышению благосостояния населения // *Экономика и социум*. – 2024. – № 5-1 (120). – С. 1597–1600.
11. Khakimov R., Toxirovna S. G. Agrarian Sector of the Republic of Uzbekistan in a Way of Development and Features of Enterprise Activity // *International Journal on Orange Technologies*. – 2020. – Vol. 2. – No. 10. – P. 53–57.
12. Samiyeva G., Aliqulov H. Innovatsion iqtisodiyot // *Innovatsion iqtisodiyot*. – 2024. – Vol. 2. – No. 4. – B. 26–34.
13. Shodmonovna F. S., Negmatovich Y. N. The Role of Livestock Reform in the Development of the Country's Economy // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Vol. 11. – No. 2. – P. 1080–1085.
14. Tokhirovna S. G. Directions to Diversify Production in Peasant (Dekhkan) Farms. – 2024.
15. Samiyeva G. T. The Main Tasks of Farms and Dekhkan Farms in Ensuring Productive Security in Uzbekistan // *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*. – 2021. – Vol. 27. – No. 1. – P. 3897–3902.
16. Tohir o'g'li A. H. Agroturizmni rivojlantirishning mohiyati va xususiyatlari // *Izlanuvchi*. – 2025. – Vol. 1. – No. 9. – B. 93–96.
17. Tohir o'g'li A. H. Agroturizm — qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish va aholi bandligini oshirishning innovatsion yo'li // *The Innovation Economy*. – 2026. – Vol. 4. – No. 04.
18. Aliqulov H. Digital Transformation and Sustainable Development in Agrotourism: Evidence from Developing Economies. – 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>